

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 7 Jild 4  
**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abduxamidov Islombek*

O‘ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT  
MUHOJIRLIGI TARIXI ..... 10-18

*Фарманова Гульнара Комилевна*

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ  
УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ..... 19-24

*Индиаминова Шоира Амриддиновна*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО  
СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ..... 25-29

*Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna*

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA FARG‘ONA VILOYATIDA  
IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH ..... 30-35

*Ismoilova Parvina*

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN  
KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) ..... 36-41

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*

O‘ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH  
JARAYONI ..... 42-46

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ  
РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ ..... 47-54

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO‘RSATKICHINI OSHIRISHNI  
TADQIQ QILISH ..... 55-61

*Mamadaliyev Ulug‘bek*

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI ..... 62-69

*Jalilov Arslon Xoshimovich*

ТЕМИР YO‘L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI  
BAHOLASH ..... 70-75

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*

O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS  
IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI ..... 76-82

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING  
TRANSFORMATSIYALASHUVI ..... 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i> MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI .....	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i> ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ .....	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i> O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY MASALALARI .....	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i> O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI .....	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i> SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI .....	117-122
<i>Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich</i> VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i> ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK .....	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI .....	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i> LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA .....	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i> O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i> O'ZBEK FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI .....	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i> RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI .....	155-159
<i>Облоқулова Шахло Асрор қизи</i> ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ .....	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI .....	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i> "MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i> NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI .....	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i> АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ .....	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромова Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Ақром Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmatatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> FUQAROLIK-HUQUQIY ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI .....	283-289
---	---------

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
--	---------

*Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAHSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
--	---------

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
--	---------

*Маматкулов Камолiddин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
---	---------

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
---	---------

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
--	---------

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
---	---------

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
---	---------

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
--	---------

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
--	---------

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
---	---------

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIV TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....	376-381
--	---------

**Received:** 30 June 2024  
**Accepted:** 5 July 2024  
**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

## THE PROCESS OF COMBATING SKIN-VENEREAL DISEASES IN UZBEKISTAN

**Jomurodov Lazizbek Islomovich,**  
Researcher, Karshi State University  
jomurodovlaziz440@gmail.com

**Abstract.** In many countries of the world, the fight against sexually transmitted diseases has been one of the most complex social problems. Diseases such as wounds, warts, leprosy, fungal diseases, itching, eczema, and scabies are included in the list of skin-genital diseases. Skin and genital diseases have been known to mankind since ancient times, and the great physician Hippocrates systematizes skin diseases and gives information about scabies, leprosy and other such diseases. Also, medical scholar Abu Ali ibn Sina writes about the symptoms of diseases such as eczema, itching and rabies and their treatment methods in his book "Medical Laws". In the 18th century, English, French, and German schools of dermatology appeared for the study of skin-genital diseases. Skin venereal diseases have existed in Central Asia since ancient times. So, what was the period, dynamics, and geography of the spread of these diseases in Uzbekistan during the Soviet era? The spread of these diseases is mainly influenced by social and household living conditions of the population, lack of sanitary culture, etc.

**Keywords:** wound, dermatology, Tashkent, skin-genital, prevention, dispensary, scabies, social-household situation, clinic.

## O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI

**Jomurodov Lazizbek Islomovich,**  
Tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti

**Annotatsiya.** Jahonning ko'plab mamlakatlarida teri tanosil kasalliklariga qarshi kurash eng murakkab ijtimoiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Zaxm, so'zak, moxov, zambro'g'li kasalliklar, qichima, ekzema, qutir kabi kasalliklar teri tanosil kasalliklar jumlasiga kiradi. Insoniyatga teri va tanosil kasalliklari kadimdan ma'lum bo'lib, buyuk tabib Gippokrat teri kasalliklarini bir tizimga soladi va kutir, moxov va boshqa shu turdagi kasalliklar haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, tib ilmi bilimdoni Abu Ali ibn Sino ham o'zining «Tib qonunlari» asarida ekzema, qichima va qutir kabi kasalliklarining belgilari va ularni davolash usullari haqida yozadi. XVIII asrda teri-tanosil kasalliklarini o'rganish bo'yicha ingliz, fransuz, nemis dermatologiya maktablari paydo bo'ldi. Teri tanosil kasalliklari O'rta Osiyoda ham qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Xo'sh, sovet davrida O'zbekistonda ushbu kasalliklarning tarqalish davri, dinamikasi, geografiyasi qay ahvolda edi? Ushbu kasalliklarning tarqalishiga ham asosan aholining ijtimoiy maishiy turmush sharoiti, sanitariya madaniyatining yetishmasligi va h.klar jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** zaxm, dermatologiya, Toshkent, teri-tanosil, profilaktika, despansir, qo'tir, ijtimoiy-maishiy ahvol, klinika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N06>

**Kirish.** 1917-yilga qadar O'zbekistonda teri tanosil kasalliklari epidemiologiyasi masalalari o'rganilmagan edi. Bemorlar soni bo'yicha barcha kasalliklar orasida bu kasalliklar bezgakdan keyin ikkinchi o'rinda turdi. O'zbekistonning barcha hududlarida bu turdagi

kasalliklar ko'rsatkichi doimiy ravishda oshib bordi. O'zbekistonda 1888-yildan 1917-yilgacha teri tanosil kasalliklari 4,4 martaga oshdi [1]. Tanosil kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni kasalxonaga yotqizish uchun 1918-yilda Toshkentda birinchi teri tanosil kasalliklari shifoxonasi tashkil etildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Respublikada teri tanosil kasalliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash va ushbu masalalarini ilmiy jihatdan o'rganish 1921-yilda Turkiston davlat universiteti tarkibida ochilgan tibbiyot fakultetida 30 o'rinli kasalxonaga ega bo'lgan teri va tanosil kasalliklari kafedrasini tashkil etilgandan so'ng boshlandi. 1921-yil aprel oyida Turkiston Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligida fohishalik va tilanchilikka qarshi kurash bo'limi tashkil etildi. Shu yilning may oyida bo'lib o'tgan respublika sog'liqni saqlash boshqarmalarining majlisida ijtimoiy kasalliklarga qarshi kurashning tashkiliy masalalariga muayyan darajada e'tibor berildi. 1924-yilda Toshkentda 30 o'rinli kasalxonaga ega bo'lgan birinchi teri-tanosil kasalliklari dispanseri tashkil etildi [2]. Shuningdek, teri tanosil kasalliklariga qarshi kurashda 1932-yili tashkil etilgan O'zbekiston teri tanosil kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti muhim rol o'ynadi. O'zbek veneraloglarining birinchi syezdida anjuman ishtirokchilari tashabbusi bilan Toshkent shahrida teri-tanosil kasalliklari dispanseri bazasida O'zbek davlat teri-tanosil kasalliklari ilmiy-tadqiqot institutini barpo etish haqida qaror qabul qilindi [3].

O'zbekiston dermatologiya va venerologiya ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotlari aholi orasida zaxm, qo'tir kasalliklarining tarqalishini o'rganish va tizimli profilaktika tadbirlarini tashkil etishga qaratildi. Institutning muhim vazifasi teri-tanosil kasalliklari muassasalariga murojaat qilgan barcha bemorlarning yagona markazlashtirilgan hisobini tashkil etish ham bo'ldi. 1933-yil 1 yanvardan teri tanosil bilan kasallanganlarning statistik xaritasi joriy etildi [4].

O'zbekiston teri tanosil kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 1935, 1936, 1938, 1940, 1950, 1957 yillarda oltita ilmiy ishlar to'plami nashr etiladi. Ilmiy maqolalarning bir qismi "Venerologiya va dermatologiya xabarnomasi", "Urologiya", "Tibbiyot fani", "O'zbekiston sotsialistik salomatligi uchun", "O'zbekiston tibbiyot jurnali" va boshqa jurnallarda, shuningdek, to'plamlarda chop etildi. Bu davrda beshta monografiya (M. V. Borzov, M. V. Veksel, B. A. Teoxarov, A. S. Zelmanovich va B. R. Dombrovskiy) va 10 tagacha turli risola va ko'rsatmalar nashr etildi. Institut ilmiy xodimlari asosan zaxm, gonoreyaga qarshi kurashni tashkil etish, profilaktika va klinikalar masalalari, yangi dori vositalari, usullar va davolash rejimlarini topish va sinovdan o'tkazish kabi muammolar ustida izlanish olib bordi [5].

Ikkinchi jahon urushi tufayli jahonning boshqa davlatlari qatori O'zbekiston aholisining ham turmush darajasi yomonlashib, aholi orasida ocharchilik, nochor turmush sharoiti va boshqa omillar tufayli turli yuqumli kasalliklar ko'payib bordi. Urush yillarida og'ir ijtimoiy maishiy turmush sharoiti tufayli turli kasalliklar, xususan, teri-tanosil kasalliklari ko'payib bordi. O'zbekistonda 1940-yil har 10000 aholiga yuqumli zaxm kasalligi 17,4 nafarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1946-yilda bu ko'rsatkich 20,6 taga to'g'ri keldi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, teri tanosil bilan kasallangan bemorlar, ayniqsa zaxm bilan kasallanganlar, uzoq muddatli va tizimli davolanishni va ko'p qirrali profilaktika ishlarini kuchaytirishni, ayniqsa infeksiya manbalarini aniqlash va yaxshilashni talab qiladi. Bu davrda teri-tanosil kasalliklariga qarshi kurashda eng jiddiy muammo bu davolash o'rinlarini yetishmasligi va kadrlar masalasiga bog'liq bo'ldi. Masalan, O'zbekistonda 1950-yili teri-tanosil kasalliklarini davolash muassasalarida 200 nafardan ortiq shifokorlar faoliyat ko'rsatib,

ularning ko'pchiligi shaharlarda ish olib bordi. Hududlarda bu turdagi davolash maskanlarining 40-60 foizida kadrlar tanqisligi kuchli edi.

1945-yildan 1965-yilgacha Respublika tibbiyot oliy o'quv yurtlarida 603 nafar dermatovenerolog mutaxassis tayyorlandi. Teri-tanosil kasalliklari bo'limlari, teri-tanosil kasalliklari dispanserlari qoshidagi o'quv kurslarida 228 nafar shifokor va 468 nafar feldsher tayyorlandi. Ammo yildan yilga kengayib borgan teri tanosil kasalliklarini davolash tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlashga bu ko'rsatkichlar yetarli bo'lmadi. O'zbekiston hududida 1924-yili teri tanosil kasalliklari bo'yicha bitta dispanser faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1957-yilga kelib ular tarmog'i ancha kengaydi. O'zbekiston teri tanosil kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti (1932-yili tashkil etildi), uchta tibbiyot yo'nalishi oliy o'quv yurtlari kafedralari, 10 ta viloyat va 31 ta shahar teri-tanosil kasalliklari dispanserlari, ushbu muassasalarda 1755 ta davolash o'rinlari mavjud edi. O'zbekistonda teri tanosil kasalliklari bo'yicha 100 dan ortiq tibbiyot muassasalarini tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanmadi.

1950-yili O'zbekistonda 17 ta dermatovenerologiya terapiya bo'limlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1954-yilga kelib ular soni 52 taga yetkazildi. Qo'ziqorin kasalliklarni davolash uchun ajratilgan o'rinlar soni qariyb 500 taga ko'paytirildi. Zamburug'li kasalliklarni yo'q qilish chora-tadbirlari O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash ministrligi rahbarligida 1951-yil oxiridan kuchaytirildi. O'zbekistonda dermatologlar ishtiroki, nazorati va ko'rsatmalari bilan umumiy tibbiyot tarmog'i, asosan, qishloq joylarda teri tanosil bilan kasallangan bemorlarni aniqlash bo'yicha 2,5 milliondan ortiq tekshiruvlar o'tkazildi. O'zbekistonda 1950-yili 723 709 nafar kishi tekshiruvdan o'tkazilib, ulardan 0,9 foizida, 1951-yili 2 511 643 nafar kishi ko'rikdan o'tkazilib, ulardan 0,7 foizida, 1952-yilda 3 683 022 nafar kishi tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda 0,55 foizida teri-tanosil kasalliklari aniqlangan[6]. Bu tekshiruvlar, birinchi navbatda, bolalarni qamrab olgan bo'lib, qo'ziqorin infeksiyasi uchun eng noqulay hududlarda ham bolalar, ham kattalar umumiy ko'rikdan uyma-uy yurish orqali o'tkazildi. Joylarda ommaviy profilaktika ko'riklarini tashkil etishda uslubiy rahbarlik va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida har bir tuman va shahar aholi punktlariga Toshkent viloyati teri-tanosil kasalliklari dispanserining shifokorlari yuborildi. Shunday qilib, 1951-yildan 1956-yilgacha 20 millionga yaqin birlamchi va takroriy ko'riklar o'tkazilganda, tahlillar shundan dalolat beradiki, ba'zi yillarda o'sish kuzatilsa-da, umumiy olganda, kasallanish 4 baravarga kamaydi. Bu borada ayniqsa, Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari dermatologlari yaxshi natijalarga erishdi.

O'zbekistonda zamburug'li kasalliklarga qarshi kurashda A. A. Akovbyan, V. N. Matveyev, L. A. Slonimskiy, R. P. Kats kabi shifokorlarning o'rni katta bo'ldi. 1953-yildan boshlab Toshkent viloyati teri-tanosil kasalliklari dispanserining shifokorlari viloyatning shahar va tumanlarida aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirish ishlarida yordam berish bo'yicha amaliy ishlarda faol ishtirok etdi. 1953-1956-yillar davomida dispanser xodimlari tibbiy otryadlar tarkibida faoliyat ko'rsatib, 28 qishloq va 2 shaharda sog'lomlashtirish ishlarida ishtirok etdi. Begovot, Mirzacho'l, Yangiyo'l va Chirchiq shaharlarida ham zamburug' kasalligiga qarshi kurash tibbiy otryadlar tashkil etildi. 1953-1956-yillarda sayyor hududiy tibbiy brigadalar tomonidan 811 154 nafar kishi birlamchi profilaktik ko'rikdan o'tkazilib, 2054 nafarda (0,23 foiz) kasallik aniqlanadi. Ulardan 1969 nafari (95,5 foiz) kasalxonaga yotqizildi. Toshkent viloyati bolalar guruhlarida tizimli sog'lomlashtirish tadbirlari tufayli dermatomikoz bilan kasallanish umuman olganda 1951 yildagi 0,5 foizdan 1956-yildagi 0,1 foizga, ya'ni 5 barobarga

kamaydi. Toshkent viloyatida kasallanish holati shahar va qishloq hududlarini taqqoslash orqali o'rganilganda, bu borada qishloqlarda ahvol og'irligi aniqlanadi. Masalan, 1956-yili Toshkent viloyatining shaharlarida atigi qo'ziqorin bilan kasallanish bo'yicha 65 ta holat aniqlangan bo'lsa, qishloqlarda 759 kishi bu kasallik bo'yicha ro'yxatga olinadi. Kasallanganlarning 88,2 foizni erkaklar, faqat 11,8 foizini ayollar tashkil etdi. Toshkent viloyatida qo'ziqorin kasalliklariga qarshi kurashni tashkil etish uchun muayyan chora-tadbirlar olib borildi. Viloyatning uchta tumanida har biri 35 o'rinli maxsus shifoxonalar qurilib, 6 ta rentgen terapiya xonasi tashkil etildi. Dermatomikoz bilan kasallangan bemorlarni uylariga yoki viloyat shifoxonalariga jo'natish uchun ikkita yuk va bitta yengil avtomobil ajratildi. Teri-venerologiya muassasalari soni va ularning yotoq sig'imi oshirildi. 1950-yilda bunday muassasalar soni 35 ta, 1956 yilda esa 43 ta bo'ldi. 1950-yili Toshkent viloyatida 42 nafar dermatovenerolog shifokor faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1956 yilda 62 dermatovenerolog, 6 laborant, 3 serolog, 7 rentgenolog va 2 dermatovenerolog feldsher, jami 80 kishi ishladi. Bundan tashqari, dermatovenerologik va umumiy tibbiyot tarmoqlarida vrachlar va hamshiralalar malakasini oshirish bilan birga maxsus o'quv tadbirlari ham olib borildi. 1951-1956 yillari viloyatda 226 nafar shifokor va o'rta tibbiyot xodimlari, shu jumladan 18 nafar rentgenolog, 122 nafar o'rta tibbiyot xodimi, 42 nafar qishloq vrachlari, 40 nafar dermatolog va 4 nafar laborantlar tayyorlandi.

Mazkur kasallikni diagnostikasi va davolashda zarur shart-sharoitlari yo'qligi, dori-darmonlar tanqisligi, aholi orasida profilaktik tadbirlarning sustligi tufayli teri tanosil kasalliklari ko'lamini kengaytib bordi. Ayniqsa aholi orasida sanitariya maorifining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham ahvolni murakkablashib borishiga xizmat qildi. Masalan, qishloq joylarda teri-tanosil bilan kasallanganlarning faqat 20-25 foizi shifokorga murojaat qilgan.

**Muhokama.** Tanosil kasalliklariga qarshi kurashning ko'plab masalalarini muhokama qilishda venerologlarning har yili o'tkaziladigan respublika seksiyalari va qurultoylari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarga qarshi kurash bo'yicha birinchi respublika yig'ilishi 1950-yil noyabr oyida Toshkentda chaqirildi. Teri tanosil kasalliklariga qarshi kurash ishlarini bir oz jonlantirilishi natijasida ba'zi kasalliklarning qisman bo'lsada pasayishiga erishildi. Masalan, O'zbekistonda zamburug'li kasalliklarga qarshi keng ko'lamli kurash 1951-yildan boshlandi. 1950-1951-yillar davomida 14289 kishi zamburug'li kasallikdan shifo topdi. Zaxm kasalligining yuqumli shakllari bilan kasallangan bemorlarni kasalxonaga yotqizish va bemorlarning boshqalar bilan aloqasi va oila a'zolarini tekshirish 1950-yildan boshlab oshdi.

Ittifoq Sog'liqni saqlash ministrligi tomonidan 1952-yil 27 noyabrdagi "Tanosil kasalliklarining yuqumli shakllarini bartaraf etish to'g'risida", 1955-yil yanvarda "Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" buyruqlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda belgilangan tadbirlardan kelib chiqib O'zbekistonda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1952-yil O'zbekiston teri tanosil kasalliklari davolash muassasalari tomonidan Toshkent, Buxoro, Farg'ona kabi viloyatlarida jami 225 ming 269 nafar fuqaro tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning 0,9 foizida dermatomikoz kasalligi aniqlandi. Ko'pgina hududlarda aniqlangan bemorlarning 80 foizdan ortig'i maktab o'quvchilari edi. Shuningdek, 1952-yili O'zSSR Sog'liqni saqlash ministrligi huzurida teri tanosil kasalliklarga qarshi kurash bo'yicha shtab tuzildi. Agar 1950-yilda respublika bo'yicha dermatovenerologlar tomonidan

723 mingdan ortiq tekshiruv o'tkazilgan bo'lsa, (dermatomikoz bilan kasallangan bemorlarning 0,9 foizini aniqlagan), keyin 1951 yilda, asosan, to'rtinchi chorakda va asosan, 2.511.693 ta tekshiruv o'tkazildi. 1952-yili 3 683 022 ta birlamchi va takroriy tekshiruvlar o'tkazildi, bu tekshiruvlar orasida 0,55 foiz bemorlar aniqlangan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda teri tanosil kasalliklari statistikasi faqat aholining tibbiy yordam so'rab murojaatiga ko'ra ro'yxatga olish bilan shakllantirildi. Tyeri tanosil bilan kasallangan bemorlar uzoq muddatli va tizimli davolanishni va ko'p qirrali profilaktika ishlarini kuchaytirishni, ayniqsa infeksiya manbalarini aniqlash va yaxshilashni talab qildi. Bu esa kasallikni davolash o'rinlari va tibbiyot kadrlari tanqisligini keltirib chiqardi.

Aholi orasida tibbiy madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham ahvolni ancha og'irlashtirdi. Teri-tanosil kasalliklarini davolash ishlariga ilmiy yondashuv, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimlari, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti va Samarqand tibbiyot instituti dermatovenerologiya kafedralari professor-o'qituvchilarining kasallikka qarshi kurash ishlarida ishtirok ham kasallikni davolash samaradorligining oshishiga xizmat qildi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Усманов Т. Материалы к истории борьбы с сифилисом в Узбекистане (1865-1970 гг.): Автореф. дис....канд. мед. наук. дисс. канд. техн. наук. меди. наука. – Ташкент, 1971. – S.5-8
2. O'z MA, 837-fond, 10- ro'yxat, 826-ish, 3-varaq.
3. O'z ITTH MA, 1-fond, 1-ro'yxat, 9438-ish, 1-varaq.
4. Матвеев В.Н. Пути и результаты борьбы с дерматомикозами в Узбекской ССР в послевоенный период – Т. Медгиз УзССР, 1959. – С.4-13
5. Тахиров К.Н. Опыт организации борьбы по ликвидации заболеваемости дерматомикозами среди населения Ташкентской области // Медицинский журнал Узбекистана.– 1957.– №5.– С.60.
6. O'z ITTH MA, F-36-fond, 1-ro'yxat, 9438-ish, 106-varaq.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).